


ONA TILI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH

**Raimjonova Umida**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat ona tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSİYA

Ushbu maqolada maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi, uning asosiy yo'nalishlarini o'rghanish, maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri ekanligi hamda lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar; maktab, so'z, lug'at tarkibi, leksikologiya, nutq, metodika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о методике работы над лексикой в школе, изучении её основных направлений, что является одной из важных задач развития речи в школе, а также о совершенствовании и организации работы над лексикой, выделении и обосновании её основных направлений управлении процессом обогащения словарного запаса учащихся.

Ключевые слова. Школа, слово словарный состав, лексикология, дискурс, методология.

ABSTRACT

This article talks about the methodology of working on vocabulary at school, studying its main areas, one of the important tasks of developing speech at school, and

improving and organizing work on vocabulary, separating and justifying its main areas,
managing the process of enriching students' vocabulary.

Keywords: word, vocabulary, lexicology, speech, methodology.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allal arini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin. [Sh. Mirziyoyev]

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo‘q mezonlaridan biri til - aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta’lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini ayni bir fikrni, narsa-hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo‘llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining o‘ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni “o‘zicha” aks ettirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g‘urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi

. 5-6-sinf o‘quv dasturida “ona tili, o‘qish bolalarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omilidir”, deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o‘rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug‘aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi. Ona tili o‘qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o‘rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til aloqa vositasi, chunki so‘zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro‘yobga chiqqan fikrni anglaydi. Ona tili fani o‘quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro‘yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni

bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta’rifini o‘zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya’ni fikrni og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashga shakldosh, zid ma’noli so‘zlarning ma’nolari turli ish turlari asosidaiborasini tushuntirishda alohida e’tibor qaratish lozim. Lug‘at ishida so‘zning ma’nosи, talaffuzi va imlosi e’tiborda tutiladi. Bular ustida ishslashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o‘quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o‘zgalar nutqini anglashlarini ta’minlashdir. Buning uchun o‘qituvchi ona tili darslarida qo’llangan har bir so‘zning va ta’limiy jarayonlarda: ekskursiya, o‘zaro suhbat, turli tadbirdarda ishlatilgan so‘zlarning ma’nosiga e’tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.

Avvalo o‘quvchilarda lugat bilan ishlash ko‘nikmasini shakillantirish ularni lug‘atlar bilan ishslashga o‘rgatish zarur boladi. Buning uchun o‘quvchi lug‘at turlarini farqlay olishi kerak bo‘ladi. Yig‘ilgan barcha lug‘atlar yig‘indisi lug‘atlar korpusini tashkil qiladi. Korpusga qo‘srimcha ravishda har qanday lug‘atda so‘z boshi “Lug‘atdan qanday foydalanish kerak” bo‘limi mavjud; shartli qisqartmalar ro‘yxati va boshqalar. Lug‘atlar har xil turda bo‘lishi mumkin. Avvalo ular ikki guruhga bo‘linadi; ensiklopedik va lingvistik. Ensiklopediya va ensiklopedik lug‘atlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular so‘zlarni emas, balki malum so‘zlar bilan ifodalangan voqelikni (obyektlar va shaxslar, hodisalar va tushunchalar) tushuntiradi. Har qanday ta’lim darajasidagi har qanday o‘quvchi entsiklopediyadan qiziqqan mavzusi bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni topishi mumkin. Shuningdek lug‘atlarning imlo, izohli, frazeologik, yangi so‘zlar lug‘ati kabi turlari juda ko‘p. Kishining lug‘ati qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo‘ladi; o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug‘atning boyligi, xima-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvofaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Lug‘atlar bilan ishslash jarayonida quyidagi topshiriqlardan, metodlardan foydalanib mavzuni yanada tushunarliroq, qiziqroq tarizda o‘tkazish mumkin. So‘z ma’nosini tushuntirish bilan birga bu so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atiga kiritish uchun har bir darsda rejalashtirilgan so‘z ustida izchil, puxta, doimiy ish olib borib, quyidagicha metod va topshiriqlardan foydalanishimiz mumkin.

1- Topshiriq “Izohini top”metodi quyida jadvalda keltirilgan so‘zlarining izohini to‘g‘ri joylashtiring.

Lug‘at so‘zlar	Lug‘at so‘zlar izohi
Chit	Suv o‘tkazmaydigan, pishiq sun’iy materialdan tayyorlangan oyoq kiyim.
Bo‘z	Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda ko‘pincha jezdan quyilgan yoki loydan (Xitoyda chinnidan ham) yasalgan siyohdon.
Tirinka	Xom pishitilgan paxta ipidan qo‘l dastgohida to‘qilgan mato.
Kirza etik	Paxta tolasidan to‘qilgan mato, gazlama.
Dovot	Ust kiyim uchun ishlatiladigan ip yoki yarim jun gazlama.

Fufoykacha	Paxta solib qavilgan, oldi tugmalab qo‘yiladigan kalta kiyim, kurtka.
------------	---

Yuqorida berib o‘tilgan topshiriq 6- sinf drasligi asosida yaratilgan bo‘lib o‘quvchi bunda o‘ziga notanish bo‘lgan so‘zlar bilan tanishadi. Jadvaldagi so‘zlar asosan kitobiy uslubga hos so‘zlar bo‘lib o‘quvchilar bu so‘zlarni ko‘proq badiiy asarlarda uchratgan bo‘lishi mumkin. Topshiriqni bajarish davomida o‘quvchilar lug‘atlar bilan tanishib ularning izohini jadvaldan topishlari kerak bo‘ladi.

2- Topshiriq. ”Chala xat” metodi deb nomlanadi. Quyida berilgan matnda tushirib qoldirilgan so‘zlarni topib to‘g‘ri joylashtiring va xatni yakunlang.

Muxtaram qayn otamizga!

Siz bilan meni qorong‘u ...larga tushirib dor ostilarigacha tortgan buning ilo‘zining ... tilagiga yeta olmagan keyin mening tilimdan soxta taloq xati yozib darvoza yonidagi haydattirishiga muvaffaq bo‘lgan va bir gunohsizni ... etgan Homid ismli bir to‘ng‘izni nihoyat ikki yillik sargardonlik so‘ngida yordamchilari bilan tuproqqa qorishishga muvaffaq bo‘ldim... Sizni shonli hovlingizni yonida voqe bo‘lgan bu kurash albatta sizni va uy ichingiz ham yor do‘srlaringizni anchagina tinchsizlikka qo‘ygan bo‘lsa kerak... Sizdan bu ulug‘ gunohi uchun avf so‘rab haydalgan o‘g‘lingiz-Otabek Yusufbek ... o‘g‘li??

So‘zlar: zindon, shahid, vaxshiyona, hoji.

Ushbu mashq o‘quvchilarda 4 ta ko‘nikmalarning biri bo‘lgan o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakillantirishga qaratilgan topshiriq hisoblanadi. O‘quvchilar matnni o‘qib tushurib qoldirilgan nuqtalar o‘rniga matn mazmunidan kelib chiqib pastda berilgan so‘zlardan mosini qo‘yishlari kerak bo‘ladi. O‘qib tushunish ko‘nikmasi

maktab o‘quvchilarida eng kerakli ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Chunki bola matnni o‘qib tushunmasa uning mazmunini anglamasa berilayotgan topshiriqlar o‘z vazifasini bajarmagan hisoblanadi.

3- Topshiriq. “O‘quvchilar pochtasi” deb nomlangan metodimiz haftada bir marta o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilar qaysi so‘zning manosini topishga qiynalsalar, shu so‘zni yozib quttiga tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so‘zlar ma’nosи, imlosi, izohi ustida ishlanadi.

4- Topshiriq. “Lu g‘atlar bilimdoni” bu metodimiz o‘quvchilarning lug‘at turlarining farqiga qanchalik to‘g‘ri borishlarini sinovdan o‘tkazadi. Buning uchun doskaga turli lug‘at turlaridan so‘zlar yoziladi o‘quvchi ularni jadvallarga to‘g‘ri joylashtirishlari kerak bo‘ladi.

Yuqoridagi metod va topshiriqlarning barchasi o‘quvchilarga oz bo‘lsada lug‘atlar bilan ishslash ko‘nikmasini shakillantirishi maqsadida yaratildi. Mavzu davomida matnda kelgan biror so‘zning ma’nosini anglamaslik shu darsdan ko‘zda tutilgan maqsadlarning to‘laqonli amalga oshishiga to‘siq bo‘ladi. Ma’nosи tushunarsiz so‘z matn uchun muhim so‘z bo‘ladigan bo‘lsa uni o‘quvchi tushunmasa matn mazmuni ochib berilmagan bo‘ladi. Bunday jarayonlarning oldini olish maqsadida o‘qtuvchi o‘quvchilarga mavzu doirasidagi so‘zlar izohli lug‘atini tarqatishi kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, so‘z ma’nosini tushuntirish ustida ishslash o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi. Ko‘chma ma’noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq birliklari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosи matn mazmunidan, konteksdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi. Lug‘atlar va ma’lumotnomalar hayotimizning doimiy hamrohi bo‘lib, bilimimizni kengaytirish, til madaniyatimizni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik- Toshkent. Fan, 2007. - B. 255.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. I Magrufova Z.M. Tahriri ostida-M: Русский язык, 1981. 228-6
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 jild Madvaliyev A. Tahriri ostida-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.. 624-6.
4. Rasulov R. (2020). Kelajak - til sohiblariniki. Til va adabiyot ta'limi, 7(7), 63- 64.
5. Ботирова Ш.И. (2020). Об обучении студентов филологии основам анализа и литературным терминам. Преподавание языка и литературы, 7(7), 82-83.
6. Botirova, S. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. Asian Journal of Multidimensional Research, 9(4),
7. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., &Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.
8. Botirova Sh.I. (2020). For Students of Philology Teaching Literary Conditions of Learning Basic Analysis. Science and Education, 1(5), 110-113.